


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10202,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 100,7 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi 2 214,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 163,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7988,3 mlrd. so'mni (91,0 %ni), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 618,6 mlrd. so'mni (68,8 %ni) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10202,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 100,7 %ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasi 78,3 % va yirik korxonalar hissasi 21,7 %ga to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida bo'lib 42,6 % yoki 4342,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng past ulush Qo'shrabot tumanida 1,9 % yoki 189,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
2019- yil yanvar-avgust	2019- yil yanvar-avgust
2020- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, 7988,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,0 % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 78,3 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kattaqo'rg'on shahrida (99,8 %) va Jomboy (99,1 %), Nurobod (98,9 %), Kattaqo'rg'on (98,9 %), Ishtixon (98,8 %), Narpay (98,8 %), Qo'shrabot (98,7 %), va Payariq (98,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-avgust

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (114,1 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	10202,5	100,7	2214,2	163,7	7988,3	91,0
Samarqand shahri	4342,3	114,1	2041,6	166,5	2300,7	89,2
Kattaqo'rg'on shahri	493,4	98,7	0,8	92,4	492,6	98,7
tumanlar:						
Oqdaryo	241,2	91,3	4,4	112,5	236,7	91,0
Bulung'ur	528,9	103,0	82,2	25 m.	446,7	87,6
Jomboy	337,1	94,0	3,0	95,1	334,1	94,0
Ishtixon	379,9	89,8	4,5	42,4	375,4	91,0
Kattaqo'rg'on	376,1	95,9	4,0	84,5	372,1	96,0
Qo'shrabot	189,2	83,7	2,5	100,1	186,7	83,6
Narpay	292,9	93,7	3,6	96,4	289,3	93,7
Payariq	334,9	94,8	5,1	97,2	329,8	94,7
Pastdarg'om	548,0	88,2	16,9	41,4	531,2	91,5
Paxtachi	192,3	87,5	3,5	104,9	188,8	87,2
Samarqand	427,9	93,0	8,9	80,3	419,0	93,3
Nurobod	218,9	89,1	2,3	117,1	216,6	88,8
Urgut	1028,4	90,6	19,1	70,0	1009,3	91,1
Toyloq	271,1	89,6	11,8	3,5 m.	259,3	86,7

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 63,7 %ga o'sdi va 2 214,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 21,7 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 7988,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,0 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,3 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Jomboy (99,1 %), Nurobod (98,9 %), Kattaqo'rg'on (98,9 %), Ishtixon (98,8%) va Qo'shrabot (98,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 21,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (47,0 %), Bulung'ur (15,5 %), Toyloq (4,3%) va Pastdarg'om (3,1 %) tumanlarida kuzatildi.



SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2620,0 ming so'm (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 1,3 % ga kamaydi) va Pastdarg'om (86,4 %), Qo'shrabot (81,9 %), Paxtachi (86,0 %), Nurobod (87,3 %), Urgut (88,4 %), Toyloq (87,5 %), Oqdaryo (89,6 %) hamda Ishtixon (87,8) tumanlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori Samarqand shahri (7922,4 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (5487,9 ming so'm) va Bulung'ur tumani (2826,7 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	2620,0	98,7
Samarqand shahri	7922,4	112,5
Kattaqo'rg'on shahri tumanlar:	5487,9	96,9
Oqdaryo	1513,8	89,6
Bulung'ur	2826,7	101,1
Jomboy	1950,6	91,7
Ishtixon	1493,0	87,8
Kattaqo'rg'on	1376,3	94,0
Qo'shrabot	1435,2	81,9
Narpay	1374,1	92,1
Payariq	1335,8	92,7
Pastdarg'om	1545,5	86,4
Paxtachi	1331,8	86,0
Samarqand	1693,2	91,1
Nurobod	1454,7	87,3
Urgut	2017,7	88,4
Toyloq	1345,3	87,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 618,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 68,8 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 242,1 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 64,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 376,5 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 72,1 %) ni tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 242,1 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 376,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	618,6	68,8	242,1	64,2	376,5	72,1
Samarqand shahri	31,1	29,0	29,7	29,4	1,4	16,8
Kattaqo'rg'on shahri	78,1	166,7	27,8	68,4	50,2	7,3 m.
tumanlar:						
Oqdaryo	34,7	87,3	3,1	161,0	31,6	84,7
Bulung'ur	52,5	73,4	25,1	131,2	27,5	52,8
Jomboy	53,1	96,0	21,5	184,6	31,7	73,3
Ishtixon	19,9	45,4	4,7	31,4	15,3	52,8
Kattaqo'rg'on	54,5	105,1	24,1	113,4	30,4	99,5
Qo'shrabot	20,1	43,4	8,4	38,6	11,7	47,7
Narpay	28,8	83,6	28,8	88,9	0,0	0,0
Payariq	50,5	92,3	11,9	110,1	38,6	88,9
Pastdarg'om	33,1	50,4	3,7	27,8	29,3	56,6
Paxtachi	25,3	61,9	7,8	77,1	17,5	57,3
Samarqand	35,8	95,9	4,4	2,3 m.	31,4	89,9
Nurobod	45,4	79,6	19,6	115,6	25,7	64,7
Urgut	34,1	32,1	11,5	23,6	22,6	39,0
Toyloq	21,6	53,3	10,0	97,0	11,6	38,7

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2,9
mlrd. so'm

Tuzlamalar



88,6
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



10,1
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

33,3
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



14,1
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

6,9
mlrd. so'm



Tuxum

39,0
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

6,8
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

5,8
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat-ning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 242,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (88,6 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

4,6mlrd.
so'm



Ziravorlar

30,0
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 376,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 307,9 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 54,6 mlrd. so'mni, otlar 11,6 mlrd. so'mni, parrandalar 2,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,7 % ni tashkil etib, 175,5 mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 67,3 % ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 81,7 % lik ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	175,5	67,3	32,2	162,8	143,3	59,4
Samarqand shahri	100,0	69,7	30,4	160,5	69,6	55,9
Kattaqo'rg'on shahri	5,6	63,0	0,0	0,0	5,6	63,0
tumanlar:						
Oqdaryo	2,2	70,5	0,0	0,0	2,2	70,5
Bulung'ur	4,7	73,2	0,9	0,0	3,8	59,5
Jomboy	4,3	62,3	0,0	0,0	4,3	62,3
Ishtixon	2,6	69,0	0,0	0,0	2,6	69,0
Kattaqo'rg'on	3,3	64,1	0,0	0,0	3,3	66,3
Qo'shrabot	2,6	69,3	0,0	0,0	2,6	69,3
Narpay	3,7	66,1	0,0	0,0	3,7	66,1
Payariq	3,7	63,1	0,0	0,0	3,7	63,1
Pastdarg'om	12,8	61,9	0,4	0,0	12,4	59,8
Paxtachi	2,3	79,9	0,2	0,0	2,1	73,3
Samarqand	8,0	59,4	0,2	35,2	7,8	60,5
Nurobod	3,1	70,8	0,0	0,0	3,1	70,8
Urgut	9,9	63,7	0,1	120,7	9,8	63,4
Toyloq	6,7	60,9	0,0	0,0	6,7	60,9

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2019- yil yanvar-avgust oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,38 % dan 0,35 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 175,5 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 67,3 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 174,9 mlrd. so'm (99,65 %) nodavlat mulk hamda 0,6 mlrd. so'm (0,35 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Samarqand shahri (99,65 %)ga to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	1 75533,7	100,0	174926,3	99,65	607,4	0,35
Samarqand shahri	99984,5	57,0	99377,1	99,65	607,4	0,35
Kattaqo'rg'on shahri	5584,9	3,2	5584,9	100,0	-	-
tumanlar:						
Oqdaryo	2227,5	1,3	2227,5	100,0	-	-
Bulung'ur	4751,0	2,7	4751,0	100,0	-	-
Jomboy	4351,9	2,5	4351,9	100,0	-	-
Ishtixon	2559,3	1,5	2559,3	100,0	-	-
Kattaqo'rg'on	3288,3	1,9	3288,3	100,0	-	-
Qo'shrabot	2558,7	1,5	2558,7	100,0	-	-
Narpay	3652,0	2,1	3652,0	100,0	-	-
Payariq	3666,1	2,1	3666,1	100,0	-	-
Pastdarg'om	12801,9	7,3	12801,9	100,0	-	-
Paxtachi	2341,0	1,3	2341,0	100,0	-	-
Samarqand	8008,5	4,6	8008,5	100,0	-	-
Nurobod	3105,8	1,8	3105,8	100,0	-	-
Urgut	9935,3	5,7	9935,3	100,0	-	-
Toyloq	6717,0	3,8	6717,0	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4745,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 97,9 % ni tashkil etdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 1 635,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 136,4 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 3110,1 mlrd. so'mni (85,2 % ni), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi 2033,3 mlrd. so'mni (86,8 % ni) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi 1076,8 mlrd. so'mni (82,4 % ni) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yirik korxonalar bo‘yicha Samarqand shahrida (2,4 marta) va Bulung‘ur (183,5 marta), Paxtachi (60,5 marta) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori ulush Samarqand shahrida (58,3%), Pastdarg‘om (7,0%), Toyloq (8,4%), Samarqand (4,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘zgarish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	4745,7	97,9	1635,6	136,4	3110,1	85,2
Samarqand shahri	2766,7	122,9	1338,8	2,4 m.	1427,9	83,8
Kattaqo‘rg‘on shahri	71,5	91,3	0,2	118,3	71,3	91,3
tumanlar:						
Oqdaryo	93,7	88,7	0,3	17,4	93,4	89,7
Bulung‘ur	96,1	107,2	24,5	183,5 m.	71,6	80,0
Jomboy	67,2	91,6	0,4	73,0	66,8	91,7
Ishtixon	64,4	92,0	7,6	6,5 m.	56,8	82,5
Kattaqo‘rg‘on	226,7	86,4	0,6	188,8	226,1	86,3
Qo‘shrabot	8,4	88,0	0,1	28,1	8,3	90,3
Narpay	41,2	93,8	9,4	171,5	31,8	82,8
Payariq	104,2	86,9	17,5	73,8	86,7	90,1
Pastdarg‘om	332,1	45,4	224,5	36,5	107,6	93,4
Paxtachi	37,1	94,1	10,7	60,5 m.	26,4	67,2
Samarqand	231,1	86,0	0,3	24,6	230,8	86,3
Nurobod	25,4	89,1	0,3	2,4 m.	25,1	88,5
Urgut	179,7	86,2	0,3	115,6	179,4	86,1
Toyloq	400,2	85,4	0,1	168,9	400,1	85,4

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, 3110,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 85,2 %ni, jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 65,5 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda yuqori ulush Samarqand (99,9 %), Urgut (99,8 %), Oqdaryo (99,7 %), Kattaqo'rg'on (99,7 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (99,7 %) bo'lgan. Eng past ulush esa Pastdarg'om (32,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.

